

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Qulboyev N. S.

«Landshaft arxeologiyasi» bo‘limi katta ilmiy xodim

Milliy arxeologiya markazi

nishonarch@gmail.com

SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sangzor havzasining tog‘-oldi hududlarida olib borilgan arxeologik kuzatuvlar natijasida aniqlangan yangi yodgorliklarning landshaft-xo‘jalik tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqot Molg‘uzar tizmasining janubiy yon bag‘irlaridagi tabiiy-geografik omillar, suv tarmoqlari, yaylov-dasht zonalari va tarixiy xo‘jalik faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritadi. GIS va masofadan zondlash ma’lumotlari asosida yodgorliklarning funksional tiplari, joylashuv xususiyatlari hamda qadimgi aholining landshaftdan foydalanish strategiyalari qayta tiklanadi. Natijalar Sangzor havzasidagi qadimgi xo‘jalik tizimlarining shakllanishi, mavsumiy chorvachilik yo‘nalishlari va sug‘orma dehqonchilikning rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sangzor havzasi, Molg‘uzar tizmasi, arxeologik landshaft, xo‘jalik tizimi, chorvachilik, dehqonchilik, GIS, masofadan zondlash.

KIRISH

Sangzor havzasining tog‘-oldi hududlari Markaziy Osiyo tarixiy-landshaft jarayonlarida muhim o‘rin tutib kelgan bo‘lib, bu makon qadimdan turli xo‘jalik tarmoqlari, migratsiya yo‘llari va madaniy aloqalar chorrahasi sifatida shakllangan. Ayniqsa, Molg‘uzar tog‘ tizmasining janubiy yon bag‘irlari va Sangzorning yuqori oqimiga tutash adirliklar arxeologik landshaftning murakkab, ko‘p qatlamli strukturasi bilan ajralib turadi. Bu hududda olib borilgan so‘nggi arxeologik kuzatuvlar natijasida turli davrlarga mansub 28 ta yangi yodgorlik aniqlanib, ular orqali Sangzor havzasining tog‘-oldi hududlarida shakllangan landshaft-xo‘jalik tizimining asosiy jihatlarini qayta ko‘rib chiqish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ushbu yodgorliklar tarkibiga turar joy manzilgohlari, qabristonlar, qorovultepalar, mavsumiy qo‘nalg‘alar, shuningdek, diniy-marosimiy inshootlar va mudofaa xarakteridagi obyektlar kiradi. Topilgan ma’lumotlar hududda qadimdan boshlab o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi qatlamlari hamda yarim ko‘chmanchi chorvador guruhlarining birgalikda yashab, o‘zaro integratsiyalashgan xo‘jalik tizimini shakllantirganini ko‘rsatadi. Bunday jarayonlar aynan Sangzor havzasining tog‘-oldi relyefi, suv resurslariga yaqinlik, tabiiy himoya imkoniyatlari va ekologik qulay sharoitlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Molg‘uzar tizmasining janubiy qismi shimoli bilan solishtirilganda keskin farqlanuvchi landshaft xususiyatlariga ega. Janubiy yon bag‘irlardagi yodgorliklarning asosiy qismi tog‘ etaklari, adirliklarning tog‘li hududlarga tutashgan qismida, asosan soylarning boshlanish nuqtalari va tabiiy buloqlar

atrofida joylashgani aniqlangan. Bu holat qadimgi aholining suv manbalaridan samarali foydalanish, chorva boqish, ekin maydonlarini tashkil etish va tabiiy muhofaza imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan ongli landshaft tanlovini aks ettiradi.

Geografik va geomorfologik kuzatuvlar yodgorliklarning aynan suv ajralish chiziqlari, daryo terrasalari, tog'-oldi adirlari va yirik tabiiy yo'laklar bo'ylab shakllanganini tasdiqlaydi. Bu esa Sangzor havzasining tog'-oldi hududlarida shakllangan landshaft-xo'jalik tizimida suv resurslarining hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganini, xo'jalik faoliyatining esa ekologik parametrlar bilan muvofiqlashgan holda rivojlanganini ko'rsatadi.

Yangi aniqlangan yodgorliklar majmuasi Sangzor havzasidagi qadimgi landshaftning strukturaviy dinamikasini, aholi zichligining o'zgarishini, xo'jalikning mavsumiy va doimiy shakllarini, chorvachilik-dehqonchilik sintezini, shuningdek, marosimiy va mudofaa tizimlarining rivojlanish bosqichlarini o'rganish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Shu bois ushbu maqolada Molg'uzar tog' tizmasining janubiy yon bag'irlarida qayd etilgan yodgorliklar asosida Sangzor havzasining tog'-oldi hududlarida yuzaga kelgan landshaft-xo'jalik tizimining asosiy komponentlari tahlil qilinadi, ularning tarixiy-geografik rivojlanish bosqichlari qayta baholanadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Landshaftning arxeologik tahlil mezonlari. Molg'uzar tog' tizmasi yonbag'irlarida arxeologik yodgorliklarni tizimli o'rganish jarayonida landshaft tahlili asosiy metodologik yo'nalishlardan biri sifatida qo'llanildi. Landshaft arxeologiyasi hozirgi kunda yodgorliklarni faqat individual obyekt sifatida emas, balki tabiiy-madaniy muhitning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish imkonini beradi[7, 142]

Molg'uzar tizmasi misolida bu yondashuv, suv tizimlari, relyef shakllari, balandlik gradienti, o'simlik qoplam va antropogen izlar asosida qadimgi xo'jalik tizimini qayta tiklash uchun ishlatildi. Har bir yodgorlikning joylashuvi, funksional tipi va atrofiy landshaft bilan o'zaro bog'liqligi "landshaft tahlil mezonlari" orqali baholandi.

Tabiiy landshaft komponentlari. Balandlik gradienti. Ustrushona ilk o'rta asrlarda qishloq tizimlari uch asosiy tabiiy-geografik zonaga ajratiladi: markaziy, shimoliy va shimoliy-g'arbiy. Har bir mintaqada xo'jalik faoliyati vertikal ixtisoslashuv asosida tashkil topgan bo'lib, past vodiylarda sug'orma dehqonchilik, o'rta balandliklarda aralash xo'jalik, yuqori zonalarda esa chorvachilik va metallurgiya ustunlik qiladi[4, 180].

Molg'uzar tizmasidagi yodgorliklar 900–2000 m oralig'ida joylashib, ularning vertikal taqsimoti funksional differensiasiyani aks ettiradi: past zonalarda (900–1200 m) - turar-joy va dehqonchilik manzillari, o'rta zonalarda (1200–1600 m) - mozorqo'rg'onlar, ishlab chiqarish punktlari va qoyatosh rasmlari, yuqori zonalarda (1600 m dan yuqori) esa - marosimiy inshootlar joylashgan. Shimoliy yonbag'irda yodgorliklar soylar bo'ylab vertikal tarzda[12, 21], janubda esa asosan

buloq manbalari atrofida joylashib, bu tabiiy sharoitlarga mos xo‘jalik ierarxiyasini ko‘rsatadi.

Suv tizimlari. Ustrushona shaharlari rivojida tog‘li hudud rel’efi va tabiiy suv manbalarining asosiy rol o‘ynaganligi ilmiy asoslangan. Ustrushonada shaharlarning shakllanishi sug‘orish tizimlari va vodiy relefi bilan bog‘liq bo‘lgan[5, 18].

Molg‘uzarning shimoliy yonbag‘rida joylashgan Uvolsoy, Tollisoy, Qoramozorsoy, G‘alchabuloqsoy va Bo‘zsoy tizimlari qadimiy hayotning asosiy ekologik o‘qlari sifatida xizmat qilgan. Janubiy qismda esa yodgorliklar, asosan, buloq manbalari atrofida joylashgan bo‘lib, ayrim hollarda buloqlardan ariq qazib suv yo‘naltirilgan. Arxeologik obyektlarning qariyb 80 foizi suv manbalaridan 200–500 metr masofada joylashgani, suv resurslari qadimiy aholining xo‘jalik faoliyatida asosiy omil bo‘lish bilan birga, marosimiy va kommunikatsion ahamiyatga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi[17, 68-85].

Relyef tiplari. Yotiq terassalar, soy o‘zanlari va buloq boshlaridagi nisbatan tekis maydonlar manzilgohlar uchun eng qulay zonalar bo‘lgan, bu esa resurslarga optimal yaqinlikni ta‘minlagan[7, 144].

O‘simlik va iqlim. Botanika tahlillariga ko‘ra, Molg‘uzarning 1000–1600 m balandlik oralig‘idagi hududlari yaylov uchun qulay mintaqaga bo‘lgan, yuqoriroqda esa subalp zonasi chorvachilikning mavsumiy markaziga aylangan[16, 250].

Antropogen landshaft elementlari. Arxeologik tahlilda tabiiy komponentlardan tashqari, inson faoliyati bilan bog‘liq landshaft o‘zgarishlari ham alohida o‘rganildi. Ular quyidagi belgilar orqali aniqlanadi:

Sug‘orish izlari. Zirabuloq, Yong‘oqli va Besharchasoyning boshlanish qismida hovuz inshooti va Molguzarning janubiy qismida esa buloq boshidan boshlangan va yodgorliklargacha kelgan ariqlar qayd etilgan. Bu holat chorvadorlarning qisman bo‘lsada ya‘ni o‘z ehtiyojlari uchun yarim dehqonchilik bilan shug‘ullanganligini ko‘rsatadi[17, 68-85].

Metallurgik faoliyat. Molguzarninigi janubiy yonbag‘rida Oyqor va Zartepa atroflarida temir rudasi parchalari, maydalagich toshlar va sopol qoliplar aniqlangan. Shimolida esa Sverchkov tomonidan ko‘p yillar davomida Miq yodgorligi o‘rgailgan[2, 25]. Songgi yillarda esa Toshbuloq va Tugunbuloq yodgorligida temirchilik ustaxonalari topildi. Bu landshaftdan resurs sifatida foydalanish bosqichini anglatadi[10, 38].

Dafn va marosimiy inshootlar. Qabrlarning joylashuvi asosan tepalik yoki suniy ravishda ko‘tarilgan tepalik ustida joylashgan. Bu qadimgi jamoalarning muqaddas makonlar uchun yuqori relyefni tanlash odatini ko‘rsatadi[13, 344].

GIS va vizualizatsion yondashuv. Tahlil jarayonida GIS (Geographic Information Systems) texnologiyasi asosiy vosita sifatida qo‘llanildi. Yodgorliklarning koordinatalari, balandlik ma‘lumotlari va suv tarmoqlari asosida interaktiv kartografik model ishlab chiqildi. Bu modelda:

har bir yodgorlikning funksional tipi (turar joy, mozar, ishlab chiqarish, marosimiy obyekt) rangli belgilarda ajratildi;

SRTM va ALOS PALSAR DEM ma‘lumotlari asosida 3D relyef modeli yaratildi;

har bir suv tizimi bo'yicha vizual radius (viewshed) va yo'l tarmog'i (least cost path) tahlili bajarildi [14, 172].

Natijada Molg'uzar tizmasining qadimiy landshafti pasttekislik–dehqonchilik zonasi, o'rta balandlik–turar joy va mozorlar zonasi, yuqori balandlik–marosimiy va qoyatosh san'ati zonasi arxeologik funksional zonalarga ajratildi.

Landshaft arxeologik tahlili shuni ko'rsatadiki, Molg'uzar tizmasida qadimiy jamoalar tabiiy sharoitlardan funksional foydalanish tizimini shakllantirgan. Bu tizimning asosiy xususiyatlari:

resurs–makon munosabati (suv, yaylov, konlar bilan yaqinlik);

vertikal xo'jalik ierarxiyasi (pastdan yuqoriga – dehqonchilik, chorvachilik, marosimiy makon);

madaniy landshaftning uzluksizligi (Bronza davridan o'rta asrlar davrigacha).

Shunday qilib, Molg'uzar tizmasi landshafti arxeologik jihatdan murakkab ekologik tizim bo'lib, unda tabiiy va ijtimoiy komponentlar bir-birini to'ldirgan. Bu model keyingi bo'limlarda xo'jalik tizimining shakllanish jarayonini tahlil qilish uchun asos yaratadi.

Balandlik zonalari bo'yicha xo'jalik modeli. Molg'uzar tog' tizmasida yodgorliklarning joylashuvi qadimiy xo'jalik tizimining “vertikal-differensial” xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ya'ni, xo'jalik faoliyati balandlik bo'yicha aniq ierarxiyada joylashgan bo'lsa-da, bu ierarxiya shimoliy va janubiy yonbag'irlarda turlicha shakllangan.

“Shimoliy yonbag'ir” (Uvolsoy, Tollisoy, Qoramozorsoy tizimlari)da yodgorliklar soylar bo'ylab ketma-ket joylashgan bo'lib, bu joylarda “vertikal xo'jalik modeli” yaqqol kuzatiladi. Pastki qismlarda (900–1200 m) turar-joy va dehqonchilik manzillari, o'rta zonalarda (1200–1600 m) mozorqo'rg'onlar, qo'nalg'alar hamda ishlab chiqarish obyektlari, balandroqda esa marosimiy inshootlar va qoyatosh san'ati majmualari joylashgan. Bu holat shimolda xo'jalik tizimi tabiiy resurslarga mos ravishda vertikal tarzda differensiallashganini bildiradi.

“Janubiy yonbag'ir” (Baxmal yo'nalishi)da esa yodgorliklar soylar bo'ylab emas, balki asosan “buloq manbalari atrofida yakka-yakka” joylashgan. Bu relyefning tikligi va suv tarmoqlarining qisqaligi bilan izohlanadi. 1000–1500 m oralig'ida kichik dehqonchilik va chorvachilik manzillari, 1500–2000 m balandliklarda esa chorvador jamoalarga oid yirik majmualar - “Toshbuloq” va “Tug'unbuloq” yodgorliklari aniqlangan. Ushbu yodgorliklarda metallurgik ustaxonalar, don mahsulotlari va hayvon suyaklari topilgani ularni “chorvadorlar shahri” sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, Ustrushona chorvador madaniyatiga xos mavsumiy xo'jalik tizimi – qishda pasttekisliklarda, yozda esa baland yaylovlarda chorva boqish amaliyoti [6, 116] – biz qayd etgan model bilan uyg'un. Sverchkov tomonidan Zomin koridori [2, 421-427] bo'ylab aniqlangan mozorqo'rg'onlarning vertikal joylashish tartibi ham bu kuzatuvni tasdiqlaydi: ya'ni ijtimoiy va diniy markazlar yuqori balandliklarda, xo'jalik faoliyati esa o'rta zonalarda to'plangan.

Shunday qilib, Molg'uzar tizmasining shimoliy qismida xo'jalik “vertikal differensial tizim” asosida, ya'ni dehqonchilikdan chorvachilikka va marosimiy

faoliyatga o'tuvchi ierarxik shaklda rivojlangan bo'lsa, janubda u "buloq asosli markazlashgan model" tarzida namoyon bo'ladi. Bu holat qadimiy aholining tabiiy landshaft sharoitlariga moslashgan, ekologik barqaror va resursga yo'naltirilgan xo'jalik tizimini ifodalaydi.

Xo'jalik tarmoqlari va resurslardan foydalanish. Molg'uzar tizmasining tabiiy boyliklari - suv, o'tloq, kon va yog'in miqdori - qadimiy xo'jalik shakllarining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Qazishma materiallari bo'lmasa-da, topografik kuzatuvlar asosida quyidagi ehtimoliy xo'jalik yo'nalishlari aniqlanadi.

Yaylov chorvachiligi. asosiy xo'jalik tarmog'i bo'lib, ot, qo'y va echkilar asosiy iqtisodiy resurs hisoblangan. Tolli, Uvol, Bo'zsoy va Qoramozorsoy bo'yida aniqlangan qo'nalg'alar suv manbalariga yaqin joylashgani bu faoliyatning asosiy yo'nalishini tasdiqlaydi. Tolli petrogliflaridagi asosiy tasvirlar ham echki hisoblanganligi qadimdan bu hududda chorvachilik rivojlanganligini bildiradi.

Molg'uzar tog' tizmasi tabiiy-geografik sharoiti jihatidan chorvachilik uchun nihoyatda qulay hudud bo'lib, u qadimiy chorvador jamoalarning xo'jalik faoliyatida muhim o'rin egallagan[8, 172-177]. Relyefning o'rtacha balandligi, keng o'tloqlar, suv manbalarining ko'pligi va iqlimning mo'tadilligi bu erda barqaror yaylov tizimi shakllanishiga imkon bergan.

Ustrushona hududining shimoliy qismi, jumladan Molg'uzar tizmasi, dasht zonasidan kirib kelgan chorvador guruhlar uchun tabiiy resurs bazasi sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa, Uvolsoy, Qoramozorsoy, Tollisoy havzalarida joylashgan keng o'tloqlar va doimiy suv manbalari chorva boqish uchun eng maqbul joylar bo'lgan.

Arxeologik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, chorvachilik faqat mavsumiy faoliyat sifatida emas, balki muvozanatli xo'jalik tizimining markaziy elementi sifatida shakllangan. Soy bo'ylaridagi terrassalar va tog' etaklaridagi qo'nalg'alar chorvadorlar tomonidan uzoq muddatli foydalanilgan, ayrim hollarda ular doimiy turar-joylarga aylangan.

Chorvadorlarning moliy oзуqasi uchun zarur sharoit aynan bu hududda to'liq ta'minlangan: suv resurslari doimiy, o'tloqlar esa serhosil bo'lgan. Natijada, chorvachilik faoliyati bilan bir qatorda cheklangan dehqonchilik unsurlari ham rivojlangan - bu esa yarim o'troq xo'jalik shaklining vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Chorvachilik tizimining iqtisodiy samaradorligi o'simlik qoplami bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Molg'uzarning subalp zonasida (1500–1900 m) ko'p yillik giyohlar va butazorlar ustun bo'lib, bu esa qoramol, qo'y, echki boqish uchun ideal sharoit yaratgan[16, 250].

Umuman olganda, Molg'uzar tizmasi chorvador jamoalar uchun resurs jihatidan barqaror, ekologik muvozanatli yaylov hududi bo'lib, bu erda chorvachilik jarayonlari Bronza davridan boshlab Ilk temir davriga qadar davom etgan. Shu asosda Molg'uzar tizmasi Ustrushona madaniy hududining asosiy chorvachilik markazlaridan biri sifatida shakllangan.

Kichik dehqonchilik. buloq va soy bo'ylarida, nisbatan past zonalarda bug'doy va arpa kabi ekinlar etishtirilgan bo'lishi ehtimol qilinadi. Ayniqsa Molguzarning janubidagi buloqlardan ariqlar qazib kelinishi va foydalanishi bunday xulosaga

kelishimizga sabab bo'ldi. Undan tashqari Tug'unbuloq yodgorligidagi topilgan don mahsulotlari ham buni isbotlaydi yani qadimda hamshu xo'jalik faoliyati bolgan bolishi mumkin.

Bizning tadqiqotlar asosan dengiz sathidan 1000 metr atrofidagi balandlik zonalarida olib borilgan bo'lib, bu hududlarda aholining asosiy xo'jalik faoliyati chorvachilik bo'lganini kuzatish mumkin. Tog'oldi relyefi, keng yaylovlar va suv manbalarining mavjudligi bu faoliyat uchun tabiiy sharoit yaratgan.

Shunga qaramay, arxeologik va paleoetnobotanik dalillar shuni ko'rsatadiki, qadimiy aholi chorvachilik bilan bir qatorda kichik hajmdagi dehqonchilik bilan ham shug'ullangan. Ya'ni, o'z ehtiyoji uchun bug'doy, arpa va boshqa don mahsulotlarini etishtirgan. Bu holat, ayniqsa, buloq va soy bo'ylaridagi turar-joylarda kuzatiladi - bu erda suv manbalaridan foydalanish, ariqchalar orqali sug'orish tizimlari bo'lganini tasdiqlovchi izlar aniqlangan.

Janubiy yonbag'ir (Baxmal) hududida xo'jalik tizimi buloq asosli dehqonchilik bilan ajralib turadi. Bu erlar nisbatan tekis adirlik bo'lib, ariqlar yordamida suv yo'naltirilgan, natijada doimiy ekin maydonlari shakllangan.

Shimoliy yonbag'ir (Zomin) esa relyef jihatidan tik va soylar bilan kesilgan bo'lib, bu erda soy asosli suv tizimi shakllangan. Yodgorliklarning ko'pchiligi yirik soylardagi terrassalarda joylashgan bo'lib, hovuzsimon suv to'plash inshootlari qadimda mavjud bo'lgan sug'orish tizimini bildiradi.

Tug'unbuloq va Toshbuloq yodgorliklaridan don mahsulotlari (arpa, bug'doy, zig'ir, no'xat urug'lari) topilgani bu erda kichik dehqonchilik tizimi qadimdan mavjud bo'lganini ko'rsatadi [1, 362]. Arxeobotanik dalillar ham Markaziy Osiyoda qadimiy dehqonchilikning tog'li zonalarda ham shakllanganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, har ikkala zona uchun ham suv manbalari xo'jalik tizimining markaziy elementi bo'lgan. Dehqonchilik, chorvachilik va turar-joylarning joylashuvi suvga yaqinlik tamoyiliga asoslangan. Bu farqlanish qadimiy aholi tomonidan landshaft va suv rejimiga moslashgan, ierarxik xo'jalik modeli mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Dengiz sathidan 2000 metr balandlikda ham insonlar dehqonchilik bilan shug'ullangan, dehqonchilik shakli lalmi dehqonchilik bo'lgan, ya'ni qulay tabiat va yomgirli sharoit tufayli ular sug'orish kerak bo'lmagan, misol uchun hozirda ham "Tyanshan subalp zonasida (2000–3000 m) davom etayotgan chorvachilik va arpa etishtirish jarayonlari qadimgi va hozirgi xo'jalik tizimlari o'rtasida ekologik izchillik mavjudligini bildiradi[11, 15]. Tugunbuloq va Toshbuloqdagi topilgan arpa, bug'doy donlari ham shunday fikrga kelishga imkon beradi garchand hali analiz o'tkazilmagan bo'lsada hozirda ham bu hududda bir vaqtda lalmi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullaniladi.

Metallurgiya. Oyqor va Zartepa atrofida topilgan temir rudasi parchalari, sopol qoliplar va tosh maydalagichlar bu hududda rudani sodda usulda eritish yoki qayta ishlash jarayonlari bo'lganini ko'rsatadi. Sverchkov ma'lumotlariga ko'ra, Zomin koridori temir davrida metallurgik markaz sifatida shakllanib, Sirdaryo vodiysi bilan iqtisodiy aloqada bo'lgan.

Molg‘uzar tog‘ tizmasi qadimdan foydali qazilmalarga, xususan temir rudasi, mis, ohaktosh va bazalt konlariga boy hudud sifatida tanilgan. Bu tabiiy resurslar mahalliy aholining iqtisodiy faoliyatida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ruda qazib olish va metallni qayta ishlash jarayonlari bu erda erta davrlardan oq shakllangan. Ba’zi hollarda Markaziy Osiyoda mis va qalayning tabiiy birikmasi (stannit) ham uchrab turishi metallurgiya faoliyatida mahalliy manbalarning o‘rni kattaligini isbotlaydi [9, 11].

Arxeologik kuzatuvlar natijasida Baxmal tumanining janubiy yonbag‘rida, xususan Oyqor, Zartepa atrofida rudani maydalash toshlari, sopol qoliqlar va kul qatlamlari aniqlangan. Bu topilmalar bu hududlarda metallurgik jarayonlar - ruda eritish, quymalash va sovutish amaliyotlari amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Ushbu faoliyat O‘rta va So‘nggi bronza hamda Ilk temir davrlariga oid bo‘lishi ehtimol qilinadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan qazishmalar bu tasavvurni yanada aniqlashtirdi. Tugunbuloq va Toshbuloq yodgorliklarida temirni qayta ishlashga oid ustaxonalar topilgan. Qazishmalar davomida temir rudasining maydalangan bo‘laklari, eritish o‘choqlari, sopol qoliqlar va shlaklar aniqlanib, bu joylarda metallni qayta ishlash jarayoni mahalliy miqyosda yo‘lga qo‘yilganini tasdiqladi. Bundan tashqari, Tugunbuloq yodgorligi yaqinida ruda konlarining izlari ham aniqlangan bo‘lib, bu erda xom ashyo manbasi bilan ishlab chiqarish markazi o‘zaro yaqin joylashganini bildiradi.

Bu topilmalar Oyqor va Zartepa atrofidagi ruda parchalari va maydalagich toshlar bilan bir tizimda qaraladi. Demak, Baxmalning janubiy yonbag‘ri qadimda resurslardan faol foydalanilgan iqtisodiy landshaft bo‘lgan. Bu erda ruda qazib olishdan tortib, dastlabki eritish va tayyor metall mahsulotlarini olishgacha bo‘lgan to‘liq texnologik zanjir mavjud bo‘lgan.

Shimoliy yonbag‘irdagi Miq yodgorligida esa S. Sverchkov tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida yirik metallurgik ustaxonalar majmuasi ochilgan [2, 25]. U erdan eritish o‘choqlari, shlaklar, ruda bo‘laklari va qoliqlar topilgan bo‘lib, bu hududda metall ishlab chiqarish industrial darajada yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Tugunbuloq–Toshbuloq–Miq yo‘nalishidagi yodgorliklar o‘zaro resurs va texnologik bog‘liqlikka ega yagona metallurgik tizimni tashkil etadi. Bu tizim Molg‘uzar tog‘lari hududining qadimdan xomashyo bazasi sifatida o‘zlashtirilganini hamda bu er aholisi faqat iste’molchi emas, balki faol ishlab chiqaruvchi bo‘lganini yaqqol isbotlaydi.

XULOSA

Molg‘uzar tog‘ tizmasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu hududda qadimiy aholi landshaftning tabiiy sharoitlariga mos xo‘jalik tizimini shakllantirgan.

Tog‘ etaklari va soy bo‘ylarida dehqonchilik va chorvachilik birgalikda olib borilgan - bu joylar aholi hayotining asosiy markazi bo‘lgan. Tog‘oldi qismlari esa mavsumiy manzillar, ya’ni chorvadorlar va o‘troq jamoalar o‘rtasidagi o‘tish

hududi sifatida ishlatilgan. Baland tog‘li zonalarda esa yaylov va marosimiy faoliyat ustun bo‘lib, bu joylar muqaddas deb hisoblangan.

Soy va buloqlar qadimda tabiiy yo‘llar vazifasini bajargan - ular orqali turli jamoalar o‘rtasida aloqa, savdo va madaniy almashinuv amalga oshgan.

Umuman olganda, Molg‘uzar aholisi tabiatga moslashgan murakkab xo‘jalik tizimini yaratgan. Dastlab suv manbalari va yaylovlardan foydalangan, keyinchalik esa dehqonchilik, metall ishlov berish va savdo faoliyatini rivojlantirgan. Shu tarzda, tog‘ tizmasi nafaqat yashash, balki ishlab chiqarish va madaniy markaz sifatida ham shakllangan.

Molg‘uzar tizmasi arxeologiyasi shuni ko‘rsatadiki, bu hududda qadimiy jamoalar:

tabiiy resurslardan integratsiyalashgan tarzda foydalangan;

suv, yaylov, kon va o‘simlik resurslarini balandlikka qarab taqsimlagan;

iqtisodiy faoliyatni mavsumiy sikl asosida tashkil etgan;

tabiat bilan uyg‘unlikda yashab, ekologik moslashuvchan tizim yaratgan.

Natijada, Molg‘uzar tizmasi O‘rta Osiyodagi eng qadimiy landshaft–xo‘jalik tizimlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, bu model keyingi davrlarda (antik va o‘rta asrlar) ham davom etgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Максудов Ф. А. Тошбулоқдаги археоботаник изланишлар // Жамият ва инновациялар. - 2023. - Т. 4, № 7/С. - Б. 359–369.

2. Сверчков Л. М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Самарканд, 1991. - 25 с.

3. Сверчков Л. М., Бороффка Н. Г. О. Периодизация погребальных памятников Заamina (от сер. II тыс. до н. э. до сер. I тыс. н. э.) // Археологические исследования в Узбекистане: 2023 год. - Вып. 16. - Самарканд: Институт археологии им. Я. Гуломова, 2024. - С. 421–427.

4. Пардаев М. Х., Ғофуров Ж. И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археология манбалар асосида). - Тошкент: Фан, 2016. - 180 б.

5. Тўйчибоев Б. Уструшонанинг қадим ва илк ўрта асрлар меъморчилиги ва шаҳарсозлигининг ўрганилиши хусусида // Ўзбекистон моддий маданияти тарихи (ИМКУ). - Самарканд, 2021. - Вып. 41. - Б. 15–27.

6. Тошбоев Ф. Э. Уструшона чорвадорларининг антик даврдаги маданияти. - Ташкент: Тафаккур қаноти, 2014. - 116 с.

7. Bintliff J. L., Howard P., Snodgrass A. M. The hidden landscape of prehistoric Greece // Journal of Mediterranean Archaeology. - 1999. - Vol. 12, No. 2. - P. 139–168.

8. Batoshov A. R., Beshko N. Yu. Characteristics of flora and plant cover of Nuratau relic mountains (South Kyzylkum) // Arid Ecosystems. - 2013. - Vol. 3. - P. 172–177.

9. Berger D., Kaniuth K., Boroffka N., Brüggemann G., Kraus S., Lutz J., Teufer M., Wittke A., Pernicka E. The Rise of Bronze in Central Asia: New Evidence for the Origin of Bronze Age Tin and Copper from Multi-Analytical Research //

Frontiers in Earth Science. - 2023. - Vol. 11. - Art. 1224873. - DOI: 10.3389/feart.2023.1224873.

10. Chernykh E. N. Ancient Metallurgy in the USSR: The Early Metal Age. - Cambridge: Cambridge University Press, 1992.

11. Chang C., Ivanov S. S., Tourtellotte P. A. Landscape and Settlement over 4 Millennia on the South Side of Lake Issyk Kul, Kyrgyzstan: Preliminary Results of Survey Research in 2019–2021 // Land. - 2022. - Vol. 11, No. 456. - P. 1–19. - DOI: 10.3390/land11040456.

12. Frachetti M. D. The Multi-Regional Emergence of Mobile Pastoralism and Institutional Complexity Across Eurasia // Current Anthropology. - 2012. - Vol. 53, No. 1. - P. 2–38.

13. Honeychurch W., Makarewicz C. A. The archaeology of pastoral nomadism // Annual Review of Anthropology. - 2016. - Vol. 45. - P. 341–359.

14. Mantellini S. Landscape Archaeology and Irrigation Systems in Central Asia: A View from Samarkand (Uzbekistan) // Urbanized Landscapes in Early Syro-Mesopotamia and Prehispanic Mesoamerica / Ed. by D. Domenici, N. Marchetti. - Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2018. - P. 169–204. - ISBN 978-3-447-11086-0.

15. Parzinger H., Boroffka N. Das Zinn der Bronzezeit in Mittelasien I. - Mainz: Philipp von Zabern, 2003.

16. Tojibaev K. Sh., Beshko N. Yu., Popov V. A., Jang C. G., Chang K. S. Botanical Geography of Uzbekistan. - Pocheon: Korea National Arboretum, 2017. - 250 p.

17. Spengler R. N., Chang C., Tourtellotte P. A. Agricultural production in the Central Asian mountains // Journal of Field Archaeology. - 2013. - Vol. 38, No. 1. - P. 68–85.

18. Tojibaev K. Sh., Beshko N. Yu., Popov V. A., Jang C. G., Chang K. S. Botanical Geography of Uzbekistan. - National Arboretum, 2017.

Кулбоев Н. С.

Старший научный сотрудник отдела «Ландшафтной археологии»

Национальный археологический центр

nishonarch@gmail.com

ЛАНДШАФТНО-ХОЗЯЙСТВЕННАЯ СИСТЕМА ВНОВЬ ВЫЯВЛЕННЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ В ПРЕДГОРНЫХ РАЙОНАХ САНГЗОРСКОЙ ДОЛИНЫ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается ландшафтно-хозяйственная система вновь выявленных археологических памятников в предгорных районах Сангзорской впадины. Исследование раскрывает взаимосвязь природно-географических условий, водных сетей, пастбищно-степных зон и хозяйственной деятельности древнего населения на южных склонах хребта Молгузар. На основе данных ГИС и дистанционного зондирования реконструируются

функциональные типы памятников, особенности их размещения и стратегии освоения ландшафта. Полученные результаты позволяют уточнить процессы формирования древних хозяйственных систем, сезонной пастбищной мобильности и развития ирригационного земледелия в Сангзорском регионе.

Ключевые слова: Сангзорская впадина, Молгузарский хребет, археологический ландшафт, хозяйственная система, скотоводство, земледелие, ГИС, дистанционное зондирование.

Kulboev N. S.

Senior Researcher at the department of «Landscape Archaeology»

National Archaeology Center

nishonarch@gmail.com

THE LANDSCAPE–ECONOMIC SYSTEM OF NEWLY IDENTIFIED ARCHAEOLOGICAL SITES IN THE FOOTHILL AREAS OF THE SANGZOR BASIN

ABSTRACT

This study examines the landscape-economic system of newly identified archaeological sites located in the foothill areas of the Sangzor Basin. Through GIS and remote sensing analyses, the research reconstructs the relationship between settlements, seasonal camps, defensive structures, and economic features on the southern slopes of the Molguzar Range. The results demonstrate how ancient communities organized pastoral mobility, foothill agriculture, and water-resource management within a dynamic environmental setting. Spatial distribution patterns of the sites indicate the emergence of a stable and regionally integrated landscape-economic system in the Sangzor Basin.

Keywords: Sangzor Basin, foothill archaeology, landscape-economic system, Molguzar Range, archaeological sites, pastoralism, agriculture, GIS, remote sensing.